BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

O‘ZBEKISTONNING GRUZIYA BILAN IQTISODIY HAMKORLIGI

Farmonov Sardorbek Xabibullo o‘g‘li
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy
Pedagogika universiteti tarix fakultiteti tarix
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
sardorbekfarmonov07@gmail.com
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.22930186

Annotatsiya: Bugungi zamonaviy dunyo o‘zaro geosiyosiy qarashlar bilan emas balki, manfaatli hamkorlik tamoyili asosida rivojlanmoqda. Endilikda hududlarni bog‘lay oladigan tovar, investitsiyalar va texnologiyalar uchun qulay sharoit yaratadigan davlatlarning o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. Shu bois xalqaro siyosat e’tibori mintaqa va qit’alarni o‘zaro bog‘laydigan davlatlarga qaratilgan. Bugun O‘zbekiston va Gruziya aynan shunday o‘rinni egallab bormoqda. Qulay geografik joylashuvi, o‘sib borayotgan iqtisodiy salohiyati ochiq muloqot va sheriklikka intilishi bu ikki mamlakatni Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazni bog‘lovchi muhim tayanch nuqtalardan biriga aylantirmoqda. Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik ko‘rsatkichlari, eksport-import, savdo hajmi, tovar ayirboshlash, transport-logistika masalalari tahlil qilinadi. Mustaqillik davridan boshlab ikki mamlakat iqtisodiy holati, 1991- 2026- yillardagi hamkorlikning tarixi va iqtisodiy tamoyili hamda turli yillarda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni faol rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oliy darajadagi hukumat tashriflari keltiriladi. 2026 - yil 2-3-iyul kunlari O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Gruziyaga oliy darajadagi davlat tashrifi va unda imzolangan strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiyaga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Shuningdek transport - logistika, O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi savdo va yuk tashishda Poti va Botumi portlarining o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy mushtaraklik, 1995- yil " Erkin savdo bitimi", Iqtisodiy hamkorlik dinamikalari, savdo va tovar aylanmasi, eksport - import, transport - logistika.

Abctrakt: The modern world is developing based on principles of mutually beneficial cooperation rather than merely on geopolitical perspectives. Increasingly, greater importance is being attached to states that can connect regions and create favorable conditions for the flow of goods, investments, and technologies. Consequently, the focus of international politics has shifted toward nations that serve as bridges between regions and continents; today, Uzbekistan and Georgia are assuming precisely this role. Their favorable geographical locations, growing economic potential, and commitment to open dialogue and partnership are transforming these two countries into key pillars connecting Central Asia and the South Caucasus. This research article analyzes indicators of economic cooperation between Uzbekistan and Georgia, covering exports and imports, trade volume, the exchange of goods, and transport and logistics issues. It examines the economic status of both countries since gaining independence, the history and economic principles of their cooperation from 1991 to 2026, and the high-level government visits that played a pivotal role in actively developing bilateral relations over the years. Particular attention is paid to the high-level state visit of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, to Georgia on July 2–3, 2026, and the Declaration on Strategic Partnership signed during that visit. Furthermore, the

article highlights the role of the ports of Poti and Batumi in transport, logistics, trade, and cargo transportation between Uzbekistan and Georgia.

Keywords: Historical commonality, 1995 Free Trade Agreement, economic cooperation dynamics, trade and turnover, exports and imports, transport and logistics

Аннотатсия: Современный мир развивается на основе принципов взаимовыгодного сотрудничества, а не только исходя из геополитических соображений. Все большее значение приобретают государства, способные соединять регионы и создавать благоприятные условия для движения товаров, инвестиций и технологий. В результате вектор международной политики сместился в сторону стран, выступающих связующим звеном между регионами и континентами; сегодня именно такую роль играют Узбекистан и Грузия. Выгодное географическое положение, растущий экономический потенциал, а также приверженность открытому диалогу и партнерству превращают эти две страны в ключевые опоры, соединяющие Центральную Азию и Южный Кавказ. В данной статье анализируются показатели экономического сотрудничества между Узбекистаном и Грузией, включая экспорт и импорт, объемы торговли, товарооборот, а также вопросы транспортно-логистической сферы. Рассматриваются экономическое положение обеих стран с момента обретения независимости, история и экономические принципы их взаимодействия в период с 1991 по 2026 год, а также визиты на высшем уровне, сыгравшие решающую роль в активном развитии двусторонних отношений. Особое внимание уделяется государственному визиту Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева в Грузию 2–3 июля 2026 года и подписанной в ходе этого визита Декларации о стратегическом партнерстве. Кроме того, в статье освещается роль портов Поти и Батуми в транспортно-логистической системе, торговле и грузоперевозках между Узбекистаном и Грузией.

Ключевые слова историческа общность, Соглашение о свободной торговле 1995 года, динамика экономического сотруничества, торговый оборот, экспорт и импорт, транспорт и логистикаю

O‘zbekiston va Gruziya xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar ildizi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Antik mualliflar Xorazm bilan Kolxida o’rtasida Amudaryo va Kaspiy dengizi orqali savdo aloqalari mavjud bo’lganini qayd etgan.

Buyuk ipak yo’li shakllanganidan keyin, ayniqsa VI asrdan boshlab Samarqand, Buxoro va Xorazm orqali Kavkaz hamda Vizantiyaga olib boruvchi muhim savdo yo‘nalishi vujudga keldi. XII asrda yaratilgan Shota Rustavelining mashhur “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonida ham Xorazm tilga olinadi. Bu esa o‘rta asrlardagi Gruziya bilan Markaziy Osiyo o‘rtasida chuqur tarixiy, madaniy va savdo aloqalari mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

XX asrning 90-yillarida O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida mutlaqo yangi mazmun va mohiyatga ega tarixiy vaziyat yuzaga keldi. Bu, avvalo, mamlakatning mustaqillikka erishgani bilan bog‘liq vaziyatdir. Istiqlol sharofati bilan iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy etish, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, xalqaro masalalarni milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda mustaqil hal etish imkoniyati yaratildi. Boshqacha aytganda, mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni qadimiy milliy davlatchilikni qayta tiklash va milliy iqtisodiyotni shakllantirish bilan uyg‘unlikda olib borildi. Mustaqilikdan keyin milliy iqtisodiyotda o‘zbek modeli yaratildi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: «Agar aynan nusxa olinsa, mamlakatning o‘ziga xos shart-sharoitlari, mavjud imkoniyatlari, yaqin va olis hamkorlik bilan ko‘p yillar davomida tarkib topgan iqtisodiy hamda ma’naviy aloqalari

e'tibordan chetda qoladi... o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li va andozasi ... iqtisodiyoti bozor munosabatlari asosiga qurilgan rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasiga, shuningdek, O'zbekiston xalqining milliy, tarixiy merosi, turmush tarzi, an'analari va ruhiyati xususiyatlariga tayanishi lozim».[1] Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston iqtisodiyotida o'z modelini yaratib ko'pgina davlatlar bilan strategik va iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Ushbu davlatlardan biri Janubiy Kavkaz mintaqasidagi strategik ahamiyatga ega bo'lgan Gruziya davlati edi. O'zbekiston va Gruziya o'rtasida ilk diplomatik aloqalar 1994-yili 19-avgustda rasmiy ravishda o'rnatilgan. 1990-yillarning o'rtalarida munosabatlar ancha faol rivojlangandi. 1995-yil sentabr oyida Gruziya prezidenti Eduard Shevardnadze O'zbekistonga tashrif buyurdi va unda tomonlar do'stlik va hamkorlik o'zaro hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi.

1996-yil may oyida Islom Karimov Gruziyaga rasmiy tashrif bilan bordi; tashrif yakunlari bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiya va hujjatlar to'plami, jumladan, aviaqatnovlar, bojxona masalalari, ikkiyoqlama soliqqa tortishdan qochish hamda huquqiy yordam ko'rsatishga oid bitimlar imzolandi.[2]

Munosabatlar rivojida yangi bosqich 2017-yilda boshlandi. Sentabr oyida Nyu Yorkda BMT Bosh assambleyasi sessiyasi doirasida prezident Shavkat Mirziyoyev Gruziya bosh vaziri Georgiy Kvirikashvilini qabul qildi. Gruziya O'zbekistonning Kavkaz mintaqasidagi muhim hamkori ekanligi ta'kidlangan. Ushbu uchrashuv hamkorlikni faollashtirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekanini anglatuvchi muhim siyosiy ishora bo'lib barcha darajadagi aloqalarni jumladan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga zamin yaratdi. Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha komissiya faoliyati erishilgan kelishuvlarni amalda tatbiq etish, mavjud to'siqlarni bartaraf qilish va hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mln dollarida:

	2016	2017	2018
Savdo aylanmasi	87,8	88,9	58,3
Eksport qilish	62,5	62,5	9,9
Import qilish	25,2	26,4	48,4

2018-yilda Tbilisida iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Gruziya hukumatlararo komissiyasining sakkizinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unga Gruziya bosh vazirining birinchi o'rinbosari, iqtisodiyot vaziri Dmitriy Kumsishvili hamda O'zbekiston tashqi savdo vaziri Jamshid Xodjayev hamraislik qildi. Tomonlar yig'ilish bayonnomasini imzoladi, ya'ni munosabatlarni rasmiy institutsional shaklga qaytardi. O'sha vaqtning o'zida ikki mamlakat ilk bor ishbilarmon doiralar ishtirokida biznes-forum o'tkazdi.[3] 2022-yilning iyul oyida Gruziya bosh vaziri Irakliy Garibashvili rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda savdo-sotiq, sanoat kooperatsiyasi, transport va logistika masalalari muhokama qilindi. O'zbekistondan yuklarni tashishda Gruziyaning tranzit salohiyati - Poti va Batumi portlaridan foydalanish masalasi alohida ko'rib chiqilgan. 2022-yil yakuni bo'yicha tovar ayirboshlash 170,7 million dollarni, shu jumladan eksport 49 milllion dollarni, import 121,7 million dollarni tashkil etdi. Asosiy eksport tovarlari: rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (30,4%), oziq-ovqat mahsulotlari (38,4%), plastmassa va ulardan tayyorlangan buyumlar (7,4%), xizmatlar (93,9%), farmasevtika mahsulotlari (3,5%) va boshqalar. Import: farmasevtika mahsulotlari (64,6 %),oziq-ovqat (10%),optik asboblar va uskunalar (10,3 %), elektr jihozlari va ular uchun ehtiyot qismlar(4,5%), xizmatlar (4,1%) va boshqalar. [4]

2025-yilning mart oyida Gruziya bosh vaziri Irakliy Kobaxidze rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. Shavkat Mirziyoyev Gruziya delegatsiyasini Toshkentda qabul qildi.

O‘zbekiston prezidenti matbuot xizmati xabarida qayd etilishicha, 2024-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 50 foizga oshgan, qo‘shma korxonalar soni va yuk tashish hajmi ko‘paygan, poytaxtlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviareyslar yo‘lga qo‘yilgan, shuningdek, gruziyalik investorlar ishtirokida O‘zbekistonda raqamli bank o‘z faoliyatini boshlagan. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma’lumotlariga ko‘ra, 2017–2025-yillarda O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi uch baravarga - 89 million dollardan 267,6 million dollargacha o‘sdi. 2025-yilda O‘zbekistonning Gruziyaga qilgan eksporti 77,2 million dollarni, Gruziyadan amalga oshirilgan import esa 190,4 million dollarni tashkil etdi. O‘zbekiston asosan sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari, mashinalar va transport uskunalari, kimyo mahsulotlari hamda xizmatlar yetkazib bergan. Gruziyadan import qilinadigan mahsulotlar tarkibida esa kimyo mahsulotlari, avvalo, dori-darmonlar, ichimliklar, oziq-ovqat, tayyor buyumlar hamda xizmatlar ustuvorlik qildi. Geostat ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston 3 foizli ulush bilan Gruziya eksportining eng yirik o‘nta yo‘nalishi qatoridan joy olgan.[5] 2025-yilning avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Gruziya bosh vaziri Irakliy Kobaxidze Turkmanistonda BMTning dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi doirasida yana uchrashdi.

O‘zbekiston uchun Gruziyaning yana bir katta ahamiyati transport-logistika masalasidir. Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va Yevropa o‘rtasida transport-logistika aloqalari kengayishi O‘zbekiston-Gruziya munosabatlarining asosiy o‘lchovlaridan biridir. Aynan ushbu yo‘nalishda ikki davlat manfaatlari o‘zaro eng uyg‘un tarzda birlashadi. O‘zbekiston uchun Yevropa bozorlariga chiqishda Gruziya transport infratuzilmasidan foydalanish alohida qiziqish uyg‘otadi. Poti va Batumi portlari ushbu logistika zanjirining muhim bo‘g‘inlari hisoblanadi. Gruziya uchun esa O‘zbekiston va mintaqaning boshqa davlatlaridan keladigan yuk oqimining ortishi Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalarini kengaytirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o‘rganish markazi mutaxassislariga ko‘ra, ikki tomonlama yuk tashishda ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi umumiy yuk tashish hajmi 146,8 ming tonnaga yetdi. Bunda eksport tashuvlari 27 foizga – 53,4 ming tonnagacha, import tashuvlari esa 26 foizga o‘sib, 71,5 ming tonnani tashkil etdi.

Shu ma’noda, O‘rta yo‘lakni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda u marshrutlarni diversifikatsiya qilish va xalqaro savdoni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochadigan, Yevroosiyoning eng istiqbolli transport bo‘g‘inlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Birgina so‘nggi besh yil ichida O‘zbekistonning ushbu yo‘nalish bo‘yicha tashqi savdo yuk tashish hajmi ikki barobarga oshib, 2025-yil yakuniga ko‘ra 1,2 million tonnaga yetdi.

O‘zbekiston va Gruziyaning mazkur yo‘nalishdagi hamkorligi mavjud transport infratuzilmasidan bazaviy foydalanish bosqichidan o‘z logistika bazasini yaratishga o‘tmoqda. Bunga O‘zbekiston tomonidan Poti erkin sanoat zonasida ko‘p tarmoqli logistika terminali qurilayotgani yaqqol misol bo‘la oladi. Loyiha doirasida qariyb 30 gektar maydonda konteyner, umumiy, sochma va tez ayniydigan tovarlar kabi turli toifadagi yuklar bilan ishlashga mo‘ljallangan zamonaviy omborxona majmuasini barpo etish rejalashtirilmoqda. Loyiha hayotga tatbiq etilsa, O‘zbekiston mahsulotlarini Yevropa yo‘nalishida yetkazib berishni ta’minlash uchun muhim logistika bo‘g‘inini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, terminal teskari yuk oqimlarini tashkil etish uchun ham foydalaniladi va bu nafaqat O‘zbekiston bilan Gruziya, balki Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan ham keng ko‘lamli o‘zaro savdo hajmini oshirishga yordam beradi.

Aynan transport-logistika sohasidagi sheriklik yaqin yillarda O‘zbekiston-Gruziya munosabatlarining asosiy drayveriga aylanish uchun eng katta salohiyatga ega. Agar hozirgi

bosqichda tomonlar savdo va infratuzilmani yangilashga e'tibor qaratayotgan bo'lsa, uzoq muddatli istiqboldagi maqsad Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va Yevropa bozorlari o'rtasida to'laqonli iqtisodiy yo'lak yaratishdan iborat.[6]

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 2-3-iyul kunlari davlat tashrifi bilan Gruziyaga bordi. Ushbu tashrif tarixiy ahamiyatga ega bo'lib nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni, balki Yevroosiyoda yangi iqtisodiy aloqalarni izchil rivojlantirish uchun muhim o'rin tutadi. Gruziyaga davlat tashrifi doirasida Tbilisi shahridagi Orbeliani saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvilining muzokaralari bo'lib o'tdi. O'zbekiston - Gruziya ko'p qirrali munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Parlamentlar, hukumatlar va ishbilarmon doiralar o'rtasidagi aloqalar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tovar ayirboshlash hajmi 270 million dollarga yetdi, qo'shma loyiha va korxonalar soni ortib bormoqda. Mamlakatimizda Gruziyaning birinchi raqamli banki – "TBC" muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Toshkent bilan Tbilisi va Batumi shaharlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda.

O'zaro savdo hajmini, jumladan, Poti va Batumi portlari salohiyatidan samarali foydalanish orqali yanada oshirish masalalariga ustuvor e'tibor qaratildi.

Farmatsevtika, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, transport, energetika, raqamli texnologiyalar va turizm sohalarida kooperatsiyani rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Xususan, transport-tranzit sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, ushbu muhim yo'nalish salohiyatidan to'laqonli foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning dolzarb masalalari muhokama qilindi

Muloqotda siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-tranzit, turizm hamda madaniy-gumanitar sohalardagi amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Xususan, transport-tranzit sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ushbu muhim yo'nalish salohiyatidan to'laqonli foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari ham keng ko'lamli tarzda muhokama qilindi.

Tomonlar, shuningdek, hukumatlar, parlamentlar, ishbilarmon doiralar o'rtasidagi faol aloqalarni hamda madaniy-gumanitar almashinuvlarni davom ettirishi muhim ekanligi ta'kidlandi. O'tgan yili ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 270 mln dollarni tashkil etdi, joriy yil boshidan buyon esa 100 mln dollardan oshdi. Yaqin yillarda ushbu ko'rsatkichni 1 mlrd dollarga yetkazish, savdodagi nomutanosiblikni bartaraf etish, sanoat ko'rgazmalarini o'zaro o'tkazish orqali ikki mamlakat o'rtasida talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni yetkazib berish hajmini oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

O'zbekiston yuklarini tashishda Poti va Batumi portlari infratuzilmasidan faol foydalanish choralariga alohida e'tibor qaratildi. Gruziyada logistika xabini, unda esa sanoat zonasi va O'zbekiston mahsulotlari uchun shourum tashkil etish rejalari qo'llab-quvvatlandi. Davlat rahbari Boku - Tbilisi - Kars temiryo'lining ishga tushirilganini olqishladi. Uni barpo etilayotgan Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston temiryo'l magistrali bilan bog'lash masalasini o'rganish taklif etildi. Sanoat kooperatsiyasi hamkorlikning alohida ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. Uning yakunlari bo'yicha 2027-yilgacha mo'ljallangan Kooperatsiya dasturi imzolandi. Qishloq xo'jaligi, elektrotexnika va energetika tarmoqlari, farmatsevtika, oziq-ovqat va yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish va development, raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, raqamli bank hamda turizm sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Loyihaviy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shma Investitsiya jamg'armasini tashkil etish taklif qilindi. O'zbekiston – Gruziya do'stlik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlash hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-tranzit, turizm

hamda madaniy-gumanitar sohalardagi amaliy hamkorlikni kengaytirishning muhim masalalari ko‘rib chiqildi.

Muzokaralar yakunida Strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi. Bundan tashqari, ustuvor yo‘nalishlardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plami almashildi. Orbeliani saroyida O‘zbekiston Respublikasi prezidendi Shavkat Mirziyoyevga Gruziyaning oliy davlat mukofoti – “Oltin mo‘yna” ordeni topshirildi.[6]

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Gruziya strategik hamkorligi ikki davlat uchun ham manfaatli bo‘ladi. Strategik sheriklik bugungi kunda O‘zbekiston va Gruziyaning Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida hamkorlikning yangi ko‘priklarini birgalikda barpo etishga bo‘lgan intilishishini ifoda etmoqda. Tovar ayirboshlashning so‘ngi yillarda jadal o‘sib borishi va bu borada davlat rahbarlarining sa’y-harakatlari alohida etiborga loyiqdir. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yildagi Gruziyaga oliy darajadagi davlat tashrifi va unda imzolangan strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiya munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ikki davlat o‘rtasidagi savdo va aloqalarni yanada rivojlantirish uchun muhim yo‘nalishlardan yana biri bu transport - logistikadir. Ikki davlat Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyoni bir - biri bilan bog‘laydigan tayanch nuqtalardir. Gruziya Kaspiy dengizi orqali O‘zbekiston uchun Yevropa bozorlariga chiqishda iqtisodiy yo‘lak vazifasini bajaradi. Bu jihatdan Gruziyaning Poti va Batumi portlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston esa Gruziya uchun aholisi gavjum bo‘lgan Markaziy Osiyo bozorlariga kirish uchun muhim darvoza vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov - O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.1- jild. - T: " O‘zbekiston",1996.276- bet.
2. slom Karimov ilmiy-ma'rifiy majmuasi. Foreign policy. 1996 year [Elektron resurs]. – URL: https://islomkarimov.uz/en/page/foreign-policy-1996
3. Ministry of Economy and Sustainable Development of Georgia. Eighth Session of Georgia
4. Uzbekistan Intergovernmental Commission for Economic Cooperation. — 14 May 2018.
5. Грузия ва Ўзбекистон ўртасида савдо-иқтисодий алоқалар қандай ривожланмоқда? //. Anhor.uz.2023.
6. O‘zbekiston - Gruziya iqtisodiy hamkorligi: https://review.uz/oz/5ld
7. O‘zbekiston – Gruziya: ikki tomonlama hamkorlik rivojlanishining yangi yo‘nalishlari
8. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA). — 02.07.2026. www.president.uz.